



UDK: 811.111.37.0

Zebiniso ALLAYAROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
E-mail: allayarovazebo6@gmail.com
Madina ERKINOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

O'zMU dotsenti DSc N.Sadullayeva taqrizi asosida

THEORETICAL BASES OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING METHODS

Annotation

This article offers a systematic examination of the theoretical bases of foreign language teaching methods and their significance within the educational process. The study explores the historical development of language teaching methodology - specifically the Grammar-Translation, Audio-Lingual and Direct Methods, as well as the Communicative Approach - through a comparative-historical framework. The findings indicate that foreign language teaching methods have evolved in response to distinct linguistic, psychological and pedagogical theories and that the effectiveness of language learning is closely associated with the appropriate selection of methods and their theoretical grounding.

Key words: foreign language, teaching methods, theoretical bases, educational process, grammar-translation method, audio-lingual method, communicative approach, linguistic theory, pedagogical effectiveness, method selection.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Аннотация

В данной статье систематически анализируются теоретические основы методов обучения иностранным языкам и их роль в образовательном процессе. В исследовании изучается становление методики преподавания языков, включая грамматико-переводной, аудиolingвальный, прямой методы, а также коммуникативный подход, с применением сравнительно-исторического анализа. Проведённый анализ показывает, что методы обучения иностранным языкам развивались на основе определённых лингвистических, психологических и педагогических теорий, и, как следствие, эффективность обучения напрямую зависит от правильного выбора метода и его теоретического обоснования.

Ключевые слова: иностранный язык, методы обучения, теоретические основы, образовательный процесс, грамматико-переводной метод, аудиolingвальный метод, коммуникативный подход, лингвистическая теория, педагогическая эффективность, выбор метода.

CHET TILINI O'QITISH METODLARINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada chet tilini o'qitish metodlarining nazariy asoslari va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni izchil va tizimli tahlil etiladi. Tdqqiqotda chet tilini o'qitish metodikalarini, jumladan, grammatik-tarjima, audiolingval, to'g'ridan to'g'ri metod (Direct method) va kommunikativ yondashuvning yuzaga kelish bosqichlari va metodik o'ziga xosliklari qiyosiy-tarixiy yondashuv asosida o'rganiladi. Shuningdek, maqolada chet tilini o'qitish metodlari muayyan lingvistik, psixologik va pedagogik nazariyalar asosida qay darajada takomillashtirib borilgan tahlil qilinib, metod tanlovi va uning nazariy asoslarining ilmiy jihatdan to'g'ri belgilanishi chet tilini o'zlashtirish samaradorligi bilan uzviy bog'liqligi ilmiy asosda yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: chet tili, o'qitish metodlari, nazariy asoslar, ta'lim jarayoni, grammatik-tarjima metodi, audiolingval metod, kommunikativ yondashuv, lingvistik nazariya, pedagogik samaradorlik, metod tanlovi.

Kirish. Bugungi globallashtirish jarayonida chet tillarini o'rganish zamon talabiga aylanibgina qolmasdan, davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy taraqqiyotini ta'minlash uchun muhim omilga aylanib bormoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2025-yil 6-may kuni bo'lib o'tgan chet tillarini o'qitish tizimini rivojlantirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha uzoq muddatli va barqaror natijalarni ta'minlaydigan, kelajak uchun mustahkam poydevor yaratishga qaratilgan yangi tizimni joriy etish zarurligi alohida ta'kidlab o'tilgan [1]. Ushbu fikr chet tilini o'qitish metodikalarini zamon talablari bilan uyg'unlashtirish hamda ularni ilmiy-nazariy asosda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Sababi, chet tilini

o'qitishda samaradorlikka erishish, avvalo, tanlangan metod va uning tayanch nazariy asoslari bilan uzviy bog'liq. Shu bois ham, chet tillarini o'qitish metodlarining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, ularning tarixiy taraqqiyoti hamda bugungi kundagi ilmiy-metodik yondashuvlarini izchil va tizimli o'rganish zamonaviy pedagogikada dolzarb ilmiy muammo sifatida e'tirof etiladi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi ham chet tilini o'qitish metodlarining nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish, shuningdek, ularning ta'lim jarayonida tutgan o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Chet tilini o'qitish muammosi ko'p yillardan buyon jahon pedagogik va metodik adabiyotlarida markaziy masalalardan biri sifatida alohida o'rin egallab kelmoqda. Mazkur yo'nalishda yaratilgan ilmiy tadqiqotlar, nazariy qarashlar va amaliy tavsiyalar chet tilini o'rgatish jarayonining mazmuniy asoslari, shakli, va

samaradorligini ilmiy asosda yoritib beradi. Xususan, D. Larsen-Freeman chet tilini o'qitish metodlarini lingvistik va psixologik nazariyalar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilib, har bir metod muayyan tarixiy davrda shakllangan ilmiy paradigma (muayyan davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan qabul qilingan ilmiy qarashlar va metodlar tizimi) mahsuli ekanligini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, muallif grammatik-tarjima metodini eng qadimgi va an'anaviy metodlardan biri sifatida ta'kidlab, uning shakllanishida lingvistika hamda klassik didaktikaning kuchli ta'siri mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek, Larsen-Freeman grammatik-tarjima metodining asosiy maqsadi etib o'quvchilarda grammatik qoidalarni ongli ravishda o'zlashtirishga yordam berish, yozma nutqni rivojlantirish va chet tilidagi matnlarni ona tiliga aniq va to'g'ri tarjima qila olish ko'nikmasini shakllantirishni belgilaydi. Muallifning nazariy qarashlariga ko'ra, ushbu metodda til mantiqiy tizim sifatida qaraladi va uni o'rganish jarayoni qoidalarni yodlash hamda ularni amaliyotda misollar orqali mustahkamlashga asoslanadi[2]. Biroq, grammatik-tarjima metodi o'quvchilarga tilni nazariy jihatdan tushunish imkonini bergan bo'lsa-da, og'zaki nutq va talaffuz ko'nikmalarini yetarli darajada ta'minlay olmagan. Shu kabi cheklovlar XX asr o'rtalariga kelib tilni mashqlar va takrorlash orqali og'zaki nutqda avtomatik egallashga qaratilgan Audiolingval (Audio-Lingual) metodini paydo bo'lishiga turtki bo'lgan. Bu metod chet tilini o'qitishda tinglash va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishni asosiy maqsad qilgan bo'lib, asosan, til strukturalarini muntazam takrorlash, mustahkamlash va avtomatlashtirish orqali o'zlashtirishga qaratilgan. Audiolingval metodining nazariy asoslari Charles C. Fries tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, Fries tilni strukturaviy tizim sifatida e'tirof etib, chet tilini o'rganish jarayonida, avvalo, fonologik va grammatik strukturalarni og'zaki shaklda egallash zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tilni o'qitish jarayoni yozma nutqni emas, balki og'zaki nutqni shakllantirishdan boshlanishi lozim[3]. Shunga qaramasdan, ba'zi tadqiqotchilar tomonidan usbu metod faqatgina nutqni takrorlash orqali shakllantiradigan metod sifatida talqin etilib, u real muloqot va kontekstni yetarli hisobga olmaydi deb e'tirof etiladi.. Shundan so'ng, tilni tarjimasiz va bevosita muloqot orqali o'rgatishga qaratilgan To'g'ridan-to'g'ri metod (Direct Method) paydo bo'ldi. J.C. Richards va T.S. Rodgersning ta'kidlashicha, bu metodning asosiy nazariy g'oyasi tilni o'rganish jarayonini ona tilini o'zlashtirishga o'xshash tabiiy jarayon sifatida tashkil etishdan iborat. Shu sababli mazkur metodda ona tilidan foydalanish qat'iy cheklanadi va o'quvchi chet tili bilan to'g'ridan-to'g'ri semantik aloqa o'rnatishga undaladi. Bunday yondashuvdan ko'zlangan asosiy maqsad esa, o'quvchilarda og'zaki nutqni rivojlantirish va til birliklarini real vaziyatlarda qo'llay olish malakasini hosil qilishdan iborat[4]. Direct Method og'zaki muloqotga urg'u berish orqali chet tilini o'zlashtirishda muhim yangilik va katta yutuq qilgan bo'lsa-da, savol-javob va dialoglar bilan cheklangan edi. Shu cheklovlar XX asr ikkinchi yarmida kommunikativ yondashuvning (Communicative Language Teaching - CLT) paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Bu borada, W. Littlewood kommunikativ yondashuvni chet tilini o'qitishda til shakllaridan ko'ra ma'no va funksiyaga ustuvor ahamiyat beruvchi metodik konsepsiya sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, tilni bilish faqat grammatik qoidalarni egallash bilan emas, balki ushbu tilni real ijtimoiy vaziyatlarda samarali qo'llay olish qobiliyati bilan belgilanadi[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, dastlabki ilmiy izlanishlarda, xususan, D.Larsen-Freeman til o'qitish metodlarini alohida ilmiy paradigmalarga tayanadigan tamoyil sifatida ko'rib chiqib, har bir metod ilm-fanning o'sish bosqichlari bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, til o'rganish metodlarini tahlil qilishda, pedagogik yondashuvlarning rivojlanish bosqichlarini aniqlash zarurati ham paydo bo'ladi. Shu qatorda, an'anaviy grammatik-tarjima metodi chet tilini nazariy asosda o'rganish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Ammo, uning og'zaki nutqni rivojlantirishdagi cheklovlari ko'p omillar tomonidan qayd etilganligi sababli, bu metodik cheklanishlar Audiolingval metodining yuzaga kelishiga turtki bo'ladi. Afsuski, og'zaki nutqni strukturalar bo'yicha takrorlash orqali mustahkamlashni asosiy maqsad qilgan ushbu yondashuv ham real vaziyatlarga asoslangan muloqot imkoniyatlarini to'laqonli ta'minlay olmadi. Bu borada, Jeremy Harmerning til o'qitish metodlariga oid fikrlari ham juda o'rinni. Sababi u ham til o'qitish jarayonini faqatgina grammatik qoida va strukturalarni tushuntirishdan iborat bo'lmagan murakkab interaktiv jarayon deb hisoblaydi va til o'rganish jarayonidagi vazifalar va topshiriqlar tilni kontekstda ishlatish orqali ko'nikma hosil qilishga xizmat qilishi kerakligini ta'kidlaydi[6]. Shuningdek, til o'rgatuvchi metodologiya va til o'rganish nazariyalarini chuqur tahlil qilgan olim sifatida tanilgan H.D.Brown ham til o'rganishni interaktiv jarayon deb ta'riflab, bu jarayonda til kirishlari (input), til chiqishlari (output) va o'rganuvchi motivatsiyasi o'rganish samaradorligini belgilaydi. U metodlarni til o'rgatish pedagogikasi doirasida "aniq usullar yig'indisi" sifatida emas, balki o'quvchi, o'qituvchi va til materiali o'rtasidagi dinamik hamkorlik deb qaraydi[7]. Bundan tashqari, Penny Ur til metodikasida kommunikativ yondashuvning ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tadi va an'anaviy metodlar bilan zamonaviy yondashuvlar o'rtasidagi farqlarni aniqlaydi. Uning tadqiqotlarida chet tilini o'qitish jarayonida til ijodiy faoliyat, rol o'yinlari va real muloqotga asoslangan vazifalar o'quvchilarning nutq va tinglab tushunish ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirilishi qayd etiladi[8]. Shunga ko'ra, kommunikativ yondashuvda til strukturaviy tahlildan ko'ra, til orqali ma'no ifodasi, vaziyatga mos vazifalarni bajarish va kommunikativ munosabatlarga urg'u beriladi. Ushbu yondashuv chet tilini o'rgatish jarayonida o'quvchilarda real ijtimoiy vaziyatlarda tilni qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishni bosh maqsad qilib oladi, bu esa an'anaviy strukturaviy yondashuvlardan tubdan farq qiladi. Bu metodologik asoslar orqali mazkur tadqiqotda til o'qitish metodlarining samaradorligi, ularning til nazariyalariga mosligi, shuningdek, amaliyotdagi qo'llanilishi yoritib beriladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida chet tilini o'qitish metodlarining nazariy asoslarining tarixiy bosqichlari hamda ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligi atroflicha tahlil etildi. O'rganilgan ilmiy-adabiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, chet tilini o'qitish metodlari tasodifiy ravishda yuzaga kelmagan, balki muayyan lingvistik, psixologik va pedagogik nazariyalar ta'siri ostida shakllanib, har bir metod o'z davrining ilmiy ehtiyojlari hamda ijtimoiy talablariga mos ravishda rivojlangan. O'tkazilgan tahlillar natijasida, grammatik-tarjima metodining chet tilini o'zlashtirish jarayonida mantiqiy tafakkur, grammatik tahlil va yozma nutqni rivojlantirishda muhim o'rin tutgani aniqlandi. Shu bilan birga, mazkur metodning asosiy cheklangan jihati sifatida tilni asosan nazariy tizim sifatida talqin etib, uni to'laqonli kommunikativ vosita sifatida shakllantirish imkoniyatlarini yetarli darajada ta'minlamaganligi ko'rsatib o'tildi. Bu kabi nazariyalarning ilmiy tasdig'i sifatida Canale va Swain tomonidan ilgari surilgan ilmiy g'oyani keltirish mumkin. Ya'ni ularning fikriga ko'ra, til ko'nikmasi faqat grammatik bilimlar bilan chegaralanib qolmasdan, balki kommunikativ, sotsiolingvistik hamda nutqiy tarkibiy unsurlarni ham o'z ichiga olishi lozim[9]. Shuningdek, Audiolingval metod esa o'rganish jarayonida takrorlash va mustahkamlash orqali avtomatik ko'nikmalar hosil qilishga urg'u beradi. Natijalar

shuni ko'rsatadiki, audiolingval metodi talaffuz va strukturaviy aniqlikni shakllantirishda samarali bo'lsa-da, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va real muloqotda erkin ishtirok etish imkoniyatlarini cheklagan. Bunga javoban to'g'ridan to'g'ri metod va undan keyin shakllangan kommunikativ yondashuvlar tilni tabiiy muhitga yaqin sharoitda o'rgatish g'oyasiga asoslandi. Krashenning "Input Hypothesis" nazariyasiga ko'ra, til o'rganish samarali bo'lishi uchun o'quvchi tushunadigan, ammo biroz murakkabroq bo'lgan til kirishlari (comprehensible input) taqdim etilishi lozim[10]. Ushbu nazariya kommunikativ yondashuvning ilmiy asosini mustahkamlab, tilni real vaziyatlar orqali o'rgatish zarurligini ko'rsatadi. Shunday qilib, tadqiqot natijalari chet tilini o'qitishda metod tanlash jarayoni ilmiy asoslangan, moslashuvchan va uyg'unlashgan bo'lishi lozimligini ko'rsatadi. Bu esa O'zbekiston ta'lim tizimida chet tillarini o'qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, chet tilini o'qitish metodlarining nazariy asoslarini chuqur va har tomonlama o'rganish hamda tahlil etish ularning ta'lim

jarayonidagi samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, har bir metod muayyan tarixiy davrda mavjud bo'lgan lingvistik, psixologik va pedagogik ehtiyojlarga mos ravishda shakllanganligi bilan xarakterlanadi. Xususan, an'anaviy metodlar mantiqiy tafakkur va grammatik bilimlarni rivojlantirishda muayyan ijobiy natijalarni bergan, ammo, ular o'quvchilarning real kommunikativ faoliyatga tayyorlanishini yetarli darajada ta'minlay olmagan. Bunga qarama-qarshi ravishda, to'g'ridan to'g'ri metod hamda kommunikativ yondashuvlar og'zaki nutqni rivojlantirish va interaktiv muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda yuqori samaradorlikni namoyon etgan. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion va kommunikativ metodlarni o'zaro uyg'unlashtirish, o'qituvchilarning metodik qobiliyatlarini izchil rivojlantirish hamda interaktiv mashqlar va amaliy vazifalarga ustuvor ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Chunki mazkur yo'nalishlar kelajakda chet tillarini o'qitish sifatini yanada oshirish, shuningdek, o'quvchilarning til ko'nikmalari va kommunikativ salohiyatini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi nutq. - Toshkent, 2025-yil 6-may.
2. Larsen-Freeman, D. Techniques and Principles in Language Teaching. - Oxford: Oxford University Press, 2000. - 189 p.
3. Fries C.C. Teaching and Learning English as a Foreign Language. - New York: Appleton-Century-Crofts, 1945. - 327 p.
4. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. - Cambridge: Cambridge University Press, 2001. - 270 p.
5. Littlewood. W. Communicative Language Teaching: An Introduction. - Cambridge: Cambridge University Press, 1981. - 108 p.
6. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. - 4th ed. - Harlow: Pearson Education Limited, 2007. - 448 p.
7. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. - 5th ed. - New York: Pearson Education, 2007. - 410 p.
8. Ur. P. A Course in Language Teaching: Practice and Theory. - Cambridge: Cambridge University Press, 1996. - 375 p.
9. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. - 1980. - Vo. 1, № 1. - 1-47 p.
10. Krashen S. The Input Hypothesis: Issues and Implications. - London: Longman, 1985. - 120 p.